

UDK 378

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA INTEGRATIV YONDASHUV QILISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

*Obidova Irodaxon Xotamjon qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika va psixologiya kafedrası stajor o'qituvchisi*

*Telefon 991076200*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayèrlashda integrativ èndashuv qilish masalasi yechimi èritiladi. Ushbu maqoladan bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayèrlashni takomillashtirish muammosi bilan shug'ullanuvchilar foydalanish mumkin.

**Kalit so'zlar:** integrativ èndashuv; o'qituvchi; didaktik; imkoniyatlar; muammo; tadqiqot; boshlang'ich; faoliyat; DTS; integratsiyalash; integratsiyalash yo'nalishlari; integrativ funktsiya; tizimlashtirilgan; ma'lumotlar; baza; ta'lim mazmuni; modernizatsiyalangan; imkoniyatlar; qiziqish; faoliyat; dalillash; strategiya.

### ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

**Аннотация:** В данной статье рассматривается решение проблемы использования интегративного подхода в подготовке будущих учителей к профессиональной деятельности. Статья может быть полезна тем, кто занимается проблемой совершенствования подготовки будущих специалистов к профессиональной деятельности.

**Ключевые слова:** интегративный подход; учитель; дидактика; возможности; проблема; исследование; начальная школа; деятельность; ДТС; интеграция; области интеграции; интегративная функция; систематизированный; данные; база; образовательное содержание; модернизированный; возможности; интерес; деятельность; рассуждение; стратегия.

### DIDACTIC POSSIBILITIES OF INTEGRATIVE APPROACH IN TRAINING FUTURE TEACHERS

**Abstract:** This article discusses the solution to the problem of using an integrative approach in preparing future teachers for professional activity. This article can be used by those who are engaged in the problem of improving the preparation of future specialists for professional activity.

**Keywords:** integrative approach; teacher; didactic; opportunities; problem; research; initial; activity; DTS; integration; areas of integration; integrative function; systematized;

*data; base; educational content; modernized; opportunities; interest; activity; justification; strategy.*

## KIRISH

Ma'lumki, —XXI asr —intellektuallashtirilgan asr ko'rinishini olib bo'ldi. Buni hozirdagi ilm-fan va texnika-texnologiyalar rivojidan yaqqol sezish mumkin. Ular negizida ishlab chiqariladigan intellektual tizimlarda ko'plab tizmiy endashuv, innovatsion endashuv, kreativ endashuv, ijodiy endashuv, majmuaviy (komillik) endashuv, integrativ endashuv kabi tadqiqot uslublaridan foydalanilmoqda. Bu tadqiqot usublari ichidan integrativ endashuvdan ko'proq foydalanilmoqda. Bunga sabab intellektuallashtirilgan asrning ta'lim-tarbiyasini tashkil etishda albatta ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishga to'g'ri keladi, ya'ni bular asosidagi hosil bo'ladigan yangilangan ta'lim mazmunini tashkil etishda integratsiyalash jaraeni amalga oshiriladi. Bu yo'nalishning istiqbolli tomoni shundaki, bunda dunyo miqyosidagi o'qitish tizimlarini texnologik taraqqiyot g'oyalari bilan integratsiyalashtiriladi, shuningdek, integratsiyalash ta'limni intellektuallashtirish jaraenida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini yanada mukammallashtirishda nixoyatda zarur.

## METODOLOGIYA

Respublikamizda intellektual salohiyatli bo'lajak mutaxassislarini tayyorlash masalasi ham davlat ahamiyatiga molik bo'lib, ushbu masalani hal qilishga alohida e'tibor qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakteristikalar strategiyasida —Uzliksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim va o'qitish sifatini baxolashning xalqaro standartlarini joriy etish vazifasi belgilangan [1]. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarni integrativ endashuv negizida kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish ularga mos innovatsion metod va texnologiyalarni ishlab chiqarish, shuningdek, ilmiy-metodik ta'minotni tayyorlash ushbu sohaning dolzarb yo'nalishlaridan xisoblanadi. Bunda ushbu sohada davlat siyosatini e'tiborga olgan holda tayyorlangan o'qituvchilar mamlakatimiz barcha jabhalarini

intellektuallashtirishga munosib hissa qo'sha oladigan mutaxassislar bo'lib yetishadi. Shuning uchun mazkur tadqiqot ishida ham integrativ èndashuv negizida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayèrlashni modernizatsiyalash masalasi qaraladi. Ushbu muammoni hal etishda dastlab an'anaviy ta'lim tizimiga mos va xos bo'lgan davlat hujjatlari o'rganilib chiqiladi va ulardagi bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy talablar asosida kasbiy faoliyatgatayèrlashni modernizatsiyalashga qaratilgan g'oyalar va ko'rsatmaviy fikrlar muammo yechimini hal qilishda etiborga olinib boriladi va ulardagi didaktik imkoniyatlar hisobga olinadi.

Quyida ularning ba`zilari haqida to'xtalamiz:

1. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayèrlashning Davlat ta'lim standartlarining mavjudligi
2. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayèrlashga oid fanlar bo'yicha Davlat ta'lim standartlarining mavjudligi.
3. Bo'lajak o'qituvchilarni malaka tavsifnomalarinig mavjudligi.
4. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv rejasidagi bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayèrlashni integrativ èndashuv negizida amalga oshirish mumkunligi va shu kabilar. Bu ko'rsatilgan oxirgi imkoniyat bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayèrlashni dastlabki bosqichidanoq integratsiyalashga kuchli e'tibor berish kerakligi talab qilinadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi fanlar bloklarining yo'naltirilgan maqsad-vazifalari bor va ularning muammo yechimini hal qilishga yetarligini aniqlab olishga to'g'ri keladi. O'rganilgan Davlat hujjatlaridagi imkoniyat va shart-sharoitlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini tarbiyalashni integrativ èndashuv negizida amalga oshirishga bo'lgan dastlabki imkoniyatlar bo'lib hisoblanadi. Shuning birga mazkur yo'nalishdagi dastlabki izlanishlarimiz natijalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini intellektual faoliyatga tayèrlashni integrativ èndashuv negizida amalga oshirish mumkin ekanligini ko'rsatadi. Bu esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashni zamon talablarini e'tiborga olgan holda integrativ èndashuv asosida amalga oshirishning ahamiyatini yanada oshiradi hamda bunday muammolarning ijtimoiy ahamiyatini ham yanada yuksaltiradi. Va qayd etish mumkinki, tadqiqetilaètgan muammoning

o'zi ham Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi istiqbolli dolzarb muammo bo'la oladi.[2]

### TAHLILLAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot ishimizning dastlabki bosqichida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ endashuv negizida tayèrlashning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari ilmiy-metodik jihatdan asoslanib olindi. Buning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini integrativ endashuv negizida tayèrlashga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish jaraèini o'zaro bog'liqbo'lgan mantiqiy ketma-ketligini ilmiy-metodik jihatdan asoslab oldik. Ularni quyidagicha ifodalab oldik:Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida integratsiyalashga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Bu birinchi kurslar ta'lim tarbiyasi jaraènida amalga oshiriladi;Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ yo'nalishlarnitanlashga o'rgatish. Bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayèrlashdagi ikkinchi kurslar ta'lim-tarbiyasi jaraènida amalga oshiriladi;Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ funktsiyalarni yaratish va ular maqsad-vazifalari hamda mazmun-moxiyatini anglab yetishga o'rgatish. Bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayèrlashdagi uchinchi kurslar talim tarbiyasi davomida amalga oshiriladi;Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ endashuv qilishga tayèrlash. Bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayèrlashdagi to'rtinchi kurslar ta'lim-tarbiya jaraènida amalga oshiriladi.Yuqorida qayd etilgan boshlang'ich sinflarga mos didaktik materiallar va spravochnik ma'lumotlar hamda muammoni yechishga kerak bo'ladigan kreativ axborotlar muhitlari tayèrlanib olindi. Tizimlashtirilgan ma'lumotlar negizida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ endashuv negizida kasbiy faoliyatga tayèrlashga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish muammosi yechimini hal qilishga ko'maklashuvchi ma'lumotlar bazasi tayèrlanadi. Bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayèrlashdagi yangilangan (modernizatsiyalangan) ta'lim mazmunini shakllantirishning metodologik asoslarini tayèrlab olishga keng imkoniyatlar yaratdi. Bunday imkoniyatlar negizida hal etilgan bosqichlar bo'yicha tayèrlangan ma'lumotlarni an'anaviy ta'lim jaraèini mazmuniga integratsiya qilish masalasi yechimini qarab chiqish mumkin bo'ladi.

Buning uchun ta'lim mazmunini integratsiya qilishga oid quyidagi qonun-qoida, tamoyillar va xulosaviy fikrlar o'rganilibchiqildi: O'qitish vositalari; o'qitish algoritmi; o'qitish mazmunini integratsiyalash; o'qitish me'èrlari; o'qitish texnologiyalari; o'qitishga axborotni tanlash; o'qitishdagi integratsiya; o'qitishda xususiyatlarni tanlash va shu kabilar. Ushbu sohadagi izlanishlarimiz natijalariga asoslanib ta'lim mazmunining integratsiyasi haqida ham biror-bir hukmiy fikrni shakllantirishga ham imkoniyat yaratildi. Biz uni quyidagicha ifodaladik: ta'lim mazmunining integratsiyasi deganda mazmunlar orasidagi mustahkam aloqa, ularning bir-birlariga o'tish jaraèni va ularga mos natijalar hamda ushbu jaraèndagi bilimlar sintezi, faoliyat turlari va qobiliyatlarning yaxlit tizimi degan tushunchaga keldik. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotimizning psixologikjixatlari ham ahamiyatlidir, ya'ni ta'lim mazmunidagi integratsiyalash ishlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilaridagi ko'pchilik xususiyatlarni tarbiyalaydi.[3] Bu haqda quyidagi fikr ahamiyatlidir:—O'qitishda xususiyatlarni tarbiyalash-fanlarni o'qitish, o'quvchilarda ilmiy munosabatni, quyidagilarni xususiyatlaydigan munosabatlarni tarbiyalash maqsadini ko'zlaydi: qiziqish (bilish xohishi) va faoliyat (biror narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xohishi); skeptiuizm(tez-tez uchraydigan fikrlarni sinchiklab ko'rib chiqish xohishi);dalillash (bilim olishda isbotlash mantiqi va qoidalardan foydalanish mahoratlari); xabardorlik (uning èrdamida o'ylash mumkin bo'lishi uchun olam haqida axborotlar fondining mavjudligi); strategiyalar (izlash uchun qoidalar mavjudligi va ulardan foydalanish xohishi); moyillik (yangi bilimlarni olish natijasida talaba o'zini olam haqidagi fikrlash usulini qayta ko'rishni boshlashi uchun boshqalarning fikri va tushunchalarini qonuniyat asosida bir chiziqqa joylashi) [4].Shuningdek, ushbu yo'nalishdagi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ èndashuv negizida tayèrlashning pedagogik jihatlari ham o'ta ahamiyatlidir. Shuning uchun ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ èndashuv negizida tayèrlashga oid materiallarning an'anaviy ta'lim mazmuniga integratsiyasi bo'yicha pedagogikshart-sharoitlar ham o'rganilib chiqildi. Unda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayèrlashning o'quv rejasidagi fanlar bloklari ham o'rganilib chiqilishi, shu asosda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ èndashuv negizida tayèrlashga mo'ljallab tayèrlangan

algoritmik bosqichlardagima'lumotlar an'anaviy ta'lim mazmuniga integratsiyalanadi.

## XULOSA

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda aytish mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ endashuv negizida kasbiy faoliyatga tayèrlashga oid ko'nikmani shakllantirish jaraèni ularning butun oliy o'quv yurtida tahsil olish davomida hal etiladi. Ulardagi integratsiyalash, integrativ yo'nalishni tanlash, integrativ funktsiya'ni ishga tushirish mazkur muammo yechimi uchun propedivtik hamda didaktik jihatdan qo'llab-quvvatlovchi asos bo'ladi. Tadqiqotimizning ushbu qismida olib borilaètgan izlanishlar natijalariga asoslanib quyidagi xulosaviy fikrlarni keltirishni maqsadga muvofiqdeb topdik: Bo'lajak o'qituvchilarni integrativ endashuv negizida tayèrlashning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayèrlashdagi ilmiy-metodik jihatdan asoslangan mukammal ta'lim mazmunini ishlab chiqishga keng imkoniyatlar yaratdi; Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ endashuv negizida tayèrlashning to'rt bosqichi (integratsiyalash; integrativ yo'nalishni tanlash; integrativ funktsiya'ni ishga tushirish; integrativ endashuv) bo'yicha olib borilgan tadqiqot hajmi va qamrovi kengligi qaralaètgan muammo yechimini hal qilishda ma'lumotlar bazasini shakllantirishning zaruriyligini ko'rsatdi; Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ endashuv negizida tayèrlash bosqichlariko'pligi (ular to'rtta) ushbu tadqiqot jaraèni va ularning natijalarini muntazam ravishda nazorat qilib borishligini ko'rsatdi, aks holda tadqiqot jaraènida chetlanishlar (samarasiz yo'llar) yuz berishi mumkin va shu kabilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF -4947-sonli —O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakteristik strategiyasi to'g'risidagi farmoni// O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami. –Toshkent–2017 -6-son. -70-modda.
2. Xasanboev J, To'raqulov X.A, Xaydarov M, Hasanboeva O, Usmonov N.O'. Pedagogika fanidan izohli lug'at.–T.: —Fan va texnologiyal, 2009, 672 b
3. Adilov N. X. About the integration of educational subjekst in the system of higher professional education. Special Issue No: 9, Avgust 2020 Novateur "Ekonomika i sotsium"



№6(97)-1 2022 www.iupr.ru 352 publication Indias. A Multidisciplinary Peer Reviewed journal impact factor 7.223 107-108 b.

4. Adilov N.X. O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda didaktik elektron vositalar va qurilmalardan foydalanish/ "Kasb- xunar ta'limi" jurnali. Toshkent. 2015 yil. 25 bet.